

XOTIRANING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA UNING INGLIZ TILINI O‘RGANISHDAGI O‘RNI**Konratbaeva Ayjamol Bazarbaevna***Falsafa fanlari doktori O‘zMPU Psixologiya kafedrasida o‘qituvchisi**O‘zbekiston***Mirzayeva Yulduzxon Umrbek qizi***O‘zMPU "Xorijiy til va adabiyot: ingliz tili" yo‘nalishi I-bosqich talabasi*

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada xotiraning psixologik xususiyatlari va uning ingliz tilini o‘zlashtirish jarayonidagi o‘rni tahlil qilinadi. Til o‘rganish jarayoni xotiraning turli turlari — qisqa muddatli, uzoq muddatli va assotsiativ xotira faoliyatiga bevosita bog‘liq ekani ilmiy asosda ko‘rsatib beriladi. Maqolada xotiraning esda olib qolish, saqlash va esga tushirish mexanizmlari hamda ularga ta’sir qiluvchi psixologik omillar yoritiladi. Tadqiqot zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlarga tayanadi hamda ingliz tilini o‘rganuvchilar uchun samarali yodlash strategiyalarini taklif etadi.

KALIT SO‘ZLAR: xotira, qisqa muddatli xotira, uzoq muddatli xotira, assotsiatsiya, eslab qolish, kognitiv jarayon, ingliz tili.

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассматриваются психологические особенности памяти и её роль в процессе изучения английского языка. Показано, что овладение языком напрямую связано с работой различных видов памяти — кратковременной, долговременной и ассоциативной. Анализируются механизмы запоминания, хранения и воспроизведения информации, а также психологические факторы, влияющие на эффективность этих процессов. Исследование основывается на современных психолого-педагогических подходах и предлагаются практические стратегии для улучшения запоминания при изучении английского языка.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: память, кратковременная память, долговременная память, ассоциации, запоминание, когнитивные процессы, изучение английского языка.

ANNOTATION. This article analyzes the psychological characteristics of memory and its role in learning the English language. It demonstrates that language acquisition is closely connected to the functioning of different types of memory, including short-term, long-term, and associative memory. The mechanisms of remembering, storing, and recalling information, as well as psychological factors influencing these processes, are discussed. The study is based on modern psychological and pedagogical approaches and provides effective memory strategies for learners of English.

KEYWORDS: *memory, short-term memory, long-term memory, association, recall, cognitive processes, English language learning.*

Til va xotira – inson aqli va uning ikki ajralmas qismi bo‘lib, ularning o‘zaro bog‘liqligi insoniyatning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Til bizni boshqa jonzotlardan ajratib turadigan asosiy vositalardan biridir. Xotira esa o‘tmish voqealarini eslab qolish, ularni amalga oshirish va kelajakdagi harakatlarimizni rejalashtirish imkonini beradi. [12; 45-50] Bu ikki unsur birgalikda jamiyatning madaniyati, tarixi va ilmiy yutuqlarini uzluksiz o‘tkazib qo‘shimcha xizmat qiladi. Til inson tafakkurining aksidir. Til orqali inson o‘zining ichki dunyosini, his-tuyg‘ularini, bilimini ifodalab boshqa insonlarga yetkazadi. Har bir jamiyatning madaniyati va tarixi til orqali ifodalanadi va saqlanadi. Til jamiyatda kommunikatsiya vositasi sifatida harakat qilishi bilan birga, u xalqning intellektual va madaniy boyligini ham aks ettiradi. Masalan, Xitoyda iyegro‘liflar orqali tasvirlanadigan so‘zlar ko‘pincha ma’no va ramzlar bilan bog‘liq. Bu xalqning boy til, xotirasi, siyosatidagi yashirinlarni aks etirishi mumkin. Shuningdek, turli tillar ham bor, bularga ko‘p so‘zlar, grammatik qoidalar, fe‘llarning turli shakllari yordam beradi.

Xotira – o‘tmishdan kelajakka o‘tish ko‘prigidir. Xotira o‘tmishda sodir bo‘lgan voqealarni eslab qolish va ularni engimizda saqlash imkonini beradi. Inson xotirasi orqali o‘z tajribasini o‘rganib, kelajak uchun dars oladi. Xotira shaxsiy bo‘lishi mumkin, ya’ni shaxsning o‘z hayotidagi voqealarni eslab qolish, yoki ijtimoiy bo‘lishi mumkin, ya’ni xalq tarixi, madaniyati va an’analarni saqlab qolish va uni kelajak avlodlarga yetkazish. Jamiyatlar o‘z tarixini xotira orqali saqlaydi, tarixiy xotira xalqning birlashishi uchun asos bo‘ladi. Masalan, O‘zbekiston xalqining Amir Temur, Bobur kabi shaxslar milliy o‘zlikni anglashda muhim rol o‘ynaydi. Bu shaxslar haqida saqlangan xotira nafaqat o‘tmishdagi g‘alabalarga, balki milliy g‘urur va kelajakdagi taraqqiyotga ishonch qiladi. Til va xotira birgalikda chambarchas bog‘liqdir. Ular insonning rivojlanishi va uzatilishi uchun asosiy vosita hisoblanadi. Til orqali shaxsiy va ijtimoiy xotira mustahkamlanadi. Xotira esa tilning boyligiga ta’sir ko‘rsatadi, yangi so‘zlar va atamalar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, xotiraning mustahkamligi tilni rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Masalan, bir xalqning madaniyati va tarixi uning tilida aks etadi. Shu orqali xotira yangi avlodlarga yetkaziladi. Moderniy hayotda, xotira va til o‘zaro birgalikda til va madaniyatda katta rol o‘ynaydi. Zamonaviy jamiyatda til va xotiraning o‘zaro bugungi kunda til va xotiraning roli yanada kengaymoqda. Texnologiyalar rivojlangan sari odamlar o‘z tajribalari va bilimlarini tez va samarali yetkazish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Biroq, bu bilan birga, xotiraning zaiflashishi va unutilish holi ham sezilmoqda. Shuning uchun bizga har bir xalq o‘zining tarixini saqlash va rivojlantirishga e’tibor qaratishimiz lozim. Til va xotiraga e’tibor qaratishimiz va ularni rivojlantirishimiz

kerak.[4; 15-20] Til va xotira o‘rtasidagi bog‘liqlik nafaqat madaniy yoki ijtimoiy, balki biologik darajada ham muhim ahamiyatga ega. Inson miyasining til va xotira bilan bog‘liq qismlari o‘zaro uzviy ishlaydi. Masalan, miyaning gipokampusi (hippocampus) yangi xotiralarni shakllantirish va saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Xotiraning bo‘g‘liqlik insonning o‘z-o‘zini anglash qobiliyatiga ta’sir qiladi. Xotiraga bog‘liq keskinlik, masalan, Altsgeymer kasalligi, inson tilida ham muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday kasalliklarda nutqning buzilishi, so‘z mulohazasi, ba’zan esa so‘zlar, topish, grammatik jihatdan to‘g‘ri gapirish qobiliyatlarini ham yo‘qotishi mumkin. Til va madaniy xotira. Madaniy xotira – bu bir xalqning tarixi, urf-odatlar va an’analarini saqlash vositasidir. Til orqali bu xotira avlodlardan avlodga yetkaziladi. O‘ziga xos shevalar va lahjalar madaniy xotira saqlashdagi sifatli xizmat qiladi.[7; 102-108] Ingliz tili o‘rganishda eng ko‘p ishlatiladigan mexanizmlardan biri bu qisqa muddatli xotiradir. Qisqa muddatli xotira o‘quvchi eshitgan yoki ko‘rgan ma’lumotni qisqa vaqt davomida ushlab turadi. Masalan, o‘qituvchi yangi so‘z aytganda yoki gap tuzishni mashq qildirayotganda, o‘quvchi shu jarayonda qisqa muddatli xotiradan foydalanadi. Biroq bu turdagi xotira cheklangan bo‘lgani uchun ma’lumot tezda unutilishi mumkin. Shuning uchun yangi ma’lumot takrorlanmasa yoki ma’noli kontekstda qo‘llanilmasa, u ongda mustahkam joylashmaydi. Til o‘rganishda eng barqaror natijani uzoq muddatli xotira ta’minlaydi. Uzoq muddatli xotira uzluksiz takror, amaliyot va ma’no bilan bog‘lash orqali shakllanadi. O‘quvchi yangi so‘zni real hayotdagi vaziyat bilan bog‘lasa, misollarda ishlatsa yoki uni o‘z fikrlari bilan uyg‘unlashtirsa, bu so‘z uzoq muddatli xotiraga o‘tadi. Psixologik tadqiqotlar ma’noli o‘rganish — ya’ni yangi bilimni avvalgi tajriba bilan bog‘lash — xotirani mustahkamlashda eng samarali usul ekanini ko‘rsatadi.[2; 60-65] Xotira jarayonlarining uch asosiy bosqichi — esda olib qolish, esda saqlash va esga tushurish — ingliz tili o‘rganishda to‘liq namoyon bo‘ladi. Esda olib qolish jarayonida o‘quvchi yangi ma’lumotni qabul qiladi. Agar bu jarayon yetarlicha kuchli bo‘lsa (diqqat jamlangan bo‘lsa, qiziqish bo‘lsa, kontekst bo‘lsa), ma’lumot keyingi bosqich — esda saqlashga o‘tadi. Esda saqlash jarayoni ma’lumotning ongda uzoq muddat saqlanishini ta’minlaydi. Esda tushurish jarayonida esa o‘quvchi kerak bo‘lgan paytda o‘rgangan so‘z yoki qoidani qayta ishlatadi. Agar bu jarayonlardan biri sust ishlasa, unutish sodir bo‘ladi. Unutish — bu tabiiy psixologik jarayon bo‘lib, u ma’lumot takrorlanmaganda, o‘quvchi uni amaliyotda qo‘llamaganida, yoki ma’lumot yetarli darajada chuqur o‘rganilmaganida yuz beradi. Masalan, ingliz tilidagi so‘z yodlangan bo‘lsa ham, o‘quvchi uni gaplarda ishlatmasa, tez orada unutib qo‘yishi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchilar til o‘rganishda muntazam takrorlash, mashq qilish va faol qo‘llashni tavsiya etadilar. Xotira ingliz tilini o‘rganishning asosi hisoblanadi. Qisqa muddatli xotira yangi ma’lumotni qabul qilishda yordam bersa, uzoq muddatli xotira uni mustahkamlaydi va kelajakda ishlatish imkonini yaratadi. Esda olib

qolish, esda saqlash va esga tushurish jarayonlarining uyg‘un ishlashi til o‘rganish samaradorligini oshiradi. Tilni o‘rganish jarayonida xotira mexanizmlarini to‘g‘ri qo‘llash o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini sezilarli ravishda yaxshilaydi. Qisqa muddatli xotira ma’lumotni tez qabul qilishga yordam beradi, uzoq muddatli xotira esa uni mustahkam saqlab qoladi. Esda olib qolish, esda saqlash va esga tushurish jarayonlarining samarali ishlashi o‘quvchining til o‘rganish darajasini keskin oshiradi. Unutish esa tabiiy jarayon bo‘lsa-da, to‘g‘ri strategiyalar orqali uni kamaytirish mumkin. Til o‘rganish jarayonida xotira nafaqat texnik jarayon, balki psixologik tayyorgarlik, diqqat, motivatsiya va shaxsiy tajriba bilan chambarchas bog‘liq. Xotira mexanizmlaridan ongli ravishda foydalanish o‘quvchilarga ingliz tilini yanada samarali, tez va mustahkam o‘zlashtirish imkonini beradi. Til o‘rganish muvaffaqiyati aynan psixologik jarayonlar bilan uyg‘unlashganda maksimal natijaga erishadi. [5; 240-245] Umuman olganda, ingliz tilini o‘rganish jarayonida xotira insonning eng asosiy psixologik tayanch tizimlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Til o‘rganish faqat yangi so‘zlarni yodlash bilan chegaralanmay, balki ularni anglash, to‘g‘ri ishlatish, nutqda qo‘llash va kerakli vaziyatlarda esga tushirish kabi murakkab kognitiv jarayonlarni talab qiladi. Shu bois xotiraning to‘g‘ri ishlashi til o‘rganuvchi uchun muvaffaqiyatning asosiy kalitiga aylanadi. Qisqa muddatli xotira o‘quvchiga dars jarayonida ma’lumotni tezda qabul qilish, uni vaqtincha ongda ushlab turish va darhol amaliyotga tadbiiq qilish imkonini beradi. Uzoq muddatli xotira esa, shu ma’lumotni doimiy saqlab turish, yil davomida unutmaslik va real muloqotda foydalanishni ta’minlaydi. Til o‘rganish samaradorligi aynan shu ikki xotira tizimining uyg‘un ishlashi bilan belgilanadi. Shuningdek, xotira jarayonlarining — esda olib qolish, esda saqlash va esga tushurish — to‘laqonli faoliyati o‘quvchining o‘zlashtirish darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Agar o‘rgangan so‘z yoki qoida yetarlicha mustahkamlanmasa, o‘quvchi uni amaliyotda qo‘llay olmasligi tabiiydir. Shu sababli muntazam takrorlash, kontekstda o‘rganish va faol nutqiy mashqlar xotirani mustahkamlashning eng samarali yo‘llari hisoblanadi. Unutishning tabiiy jarayon ekanini inobatga olsak-da, uni kamaytirish to‘g‘ri strategiyalar orqali mumkin. Spaced repetition, assotsiativ yodlash, vizual tasvirlar yaratish, so‘zlarni guruhlab o‘rganish kabi metodlar xotiraning barqarorligini oshirib, o‘quvchini til o‘rganishdagi qiyinchiliklardan halos etadi. Bundan tashqari, til o‘rganish jarayonida motivatsiya, diqqatning barqarorligi, ichki ishonch, o‘quv muhiti kabi omillar ham xotiraning ishlashiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchi o‘zini ruhiy jihatdan qulay his qilgan muhitda ma’lumotni tezroq qabul qiladi va uzoq muddat eslab qoladi. Demak, til o‘rganishda psixologik qulaylik ham xotira samaradorligini keskin oshiradi. [3; 142-148]

Xulosa qilib aytganda, xotira – bu ingliz tilini o‘rganishning yuragi, barcha o‘quv jarayonlarining asosiy boshqaruv markazidir. Xotira faoliyatini tushunish va undan ongli

ravishda foydalanish o‘quvchilarga tilni yanada chuqurroq, mustahkamroq va samaraliroq o‘zlashtirish imkonini beradi. Xotirasi faol, psixologik jihatdan tayyor va o‘rganishga motivatsiyaga ega bo‘lgan o‘quvchi chet tilini o‘zlashtirishda yuqori natijalarga erishadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Anderson, J. R. Learning and Memory: An Integrated Approach. John Wiley & Sons, 1995.
2. Bartlett, F. C. Remembering: A Study in Experimental and Social Psychology. Cambridge University Press, 1932.
3. Bialystok, E. Bilingualism in Development: Language, Literacy, and Cognition. Cambridge University Press, 2001.
4. Chomsky, N. New Horizons in the Study of Language and Mind. Cambridge University Press, 2002.
5. Crystal, D. Language Death. Cambridge University Press, 2000.
6. Crystal, D. The Cambridge Encyclopedia of Language. Cambridge University Press, 2002.
7. Kandel, E. R., Schwartz, J. H., & Jessell, T. M. Principles of Neural Science. McGraw-Hill, 2000.
8. Pinker, S. The Language Instinct. HarperCollins, 1994.
9. Squire, L. R. Memory and Brain Systems: 1969–2009. Journal of Neuroscience, 2009.
10. Tulving, E. How Many Memory Systems Are There? American Psychologist, 1985.
11. Tulving, E. & Craik, F. I. M. The Oxford Handbook of Memory. Oxford University Press, 2000.
12. Vygotsky, L. Thought and Language. MIT Press, 1986.